

QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-aprel*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6719 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6700 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6879,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 108,6 % ga o'sish ta'minlandi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 310,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5664,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 903,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	6 879,1	108,6
Qarshi sh.	1 875,3	114,3
Shahrisabz sh.	570,0	107,6
G'uzor	262,5	109,8
Dehqonobod	216,7	104,0
Qamashi	477,1	104,7
Qarshi	238,0	104,9
Koson	488,0	107,4
Kitob	377,2	107,4
Mirishkor	220,1	104,3
Muborak	183,1	104,0
Nishon	263,1	104,3
Kasbi	269,5	104,0
Ko'kdala	295,7	110,8
Chiroqchi	554,1	106,4
Shahrisabiz	234,0	116,4
Yakkabog'	354,9	104,0


2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz tumani (116,4 %), Qarshi shahri (114,3 %) va G'uzor tumanlarida (109,8 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-aprel)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati 108,6 % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 27,3 % bilan 1875,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,7 % bilan 183,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-aprel oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 5664,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,3 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 111,9 % ga ko'paydi va 310,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,5 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,5 %), Nishon va Mirishkor (99,2 %), Kasbi va Qamashi (99,1 %), Dehqonobod (99,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (16,5 %), Qarshi shahri (8,4 %), Ko'kdala (5,4 %) va G'uzor (4,9 %) tumanlarida kuzatildi.

4,4 %

95,6 %




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar-aprel oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1927,6 ming.so'mni (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 106,2 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-aprel), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	903,9	107,0
Qarshi sh.	68,1	115,3
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	15,1	105,4
G'uzor	47,1	105,9
Dehqonobod	27,8	105,1
Qamashi	76,1	106,1
Qarshi	12,0	106,5
Koson	16,4	106,6
Kitob	73,3	106,5
Mirishkor	7,2	108,0
Muborak	37,1	110,1
Nishon	47,2	106,3
Kasbi	23,9	107,0
Ko'kdala	150,2	106,0
Chiroqchi	229,2	106,8
Shahrisabz	32,1	105,7
Yakkabog'	41,1	105,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-aprel)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-aprel)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 903,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 388,7 mlrd. so'mni (110,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 515,2 mlrd so'mni tashkil etdi (106,0 %).













2024- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 388,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (214,4 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>215,4 mlrd. so'm</p>  <p>55,3 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>60,0 mlrd. so'm</p>  <p>15,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>16,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>26,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,7 %</p>	<p>Qurtilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>10,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>10,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>19,8 mlrd. so'm</p>  <p>5,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>11,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>4,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>6,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>7,0 mlrd. so'm</p> <p>1,8 %</p>

2024- yilning yanvar-aprel oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 381,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 261,7 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 102,6 mlrd. so'mni, otlar – 15,6 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>167,8 mlrd. so'm</p>  <p>44,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>72,5 mlrd. so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>21,4 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>59,1 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>15,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>43,5 mlrd. so'm</p>  <p>11,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1441 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1433 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	200,0	107,0
Qarshi sh.	65,4	102,9
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	15,1	112,0
G'uzor	9,6	104,1
Dehqonobod	5,7	105,6
Qamashi	6,7	106,6
Qarshi	8,1	104,3
Koson	6,8	107,3
Kitob	12,5	105,2
Mirishkor	3,3	106,1
Muborak	22,6	126,9
Nishon	17,1	103,9
Kasbi	6,5	105,6
Ko'kdala	1,9	107,0
Chiroqchi	6,3	107,2
Shahrisabz	4,5	105,2
Yakkabog'	7,9	104,3

2024- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 200,0 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	970,7	100,0
Qarshi sh.	845,2	87,1
Shahrisabz sh.	7,9	0,8
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	0,9	0,1
Dehqonobod	2,0	0,2
Qamashi	0,4	0,0
Qarshi	78,9	8,1
Koson	2,3	0,2
Kitob	3,9	0,4
Mirishkor	2,6	0,3
Muborak	3,0	0,3
Nishon	2,4	0,2
Kasbi	13,5	1,4
Ko'kdala	0,7	0,1
Chiroqchi	5,1	0,5
Shahrisabz	1,1	0,1
Yakkabog'	0,9	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (845,2 mlrd. so'm), Qarshi va (78,9 mlrd. so'm) Kasbi tumanlari (13,5 mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (7,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 970,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,7 foizga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 447,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 48,4 foizga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 523,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 3,3 m.) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1941,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

12,1 %

235,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

87,9 %

1705,9 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda 1705,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2241 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2233 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajm ega yirik korxonalar Qarshi shahri (168,2 mlrd. so‘m), Qamashi (29,9 mlrd. so‘m), Kasbi va (168,2 mlrd. so‘m) Qarshi tumanlarida (13,7 mlrd. so‘m) qayd etildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	1941,1	109,4
Qarshi sh.	934,4	113,3
Shahrisabz sh.	174,8	113,0
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	56,6	107,1
Dehqonobod	8,9	108,0
Qamashi	70,2	187,2
Qarshi	141,1	100,8
Koson	141,3	105,5
Kitob	104,1	104,8
Mirishkor	53,6	106,5
Muborak	29,7	101,7
Nishon	35,4	107,1
Kasbi	30,1	48,7
Ko‘kdala	6,9	105,2
Chiroqchi	64,8	104,6
Shahrisabz	49,9	118,4
Yakkabog‘	39,3	105,7